



## Kirish

Butun dunyoda Kingston® savdo belgisi deyilganda, yuqori sifatli ma'lumotlarni saqlash uskunalari hayolga keladi. Ammo boshqa yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan bo'lganidek Kingston Technology kompaniyasi mahsulotlarining ham mashxurligi, qalbaki mahsulotlar ishlab chiqarilishiga sabab bo'ladi. Tekshiruvlar, rastalarda yetarlicha katta miqdorda Kingston® savdo belgisi ostida kontrafakt mahsulotlar sotilayotganligini tasdiqladi.

Iste'molchilar manfaatlarini va o'zining yuqori sifatli mahsulotlarini himoya etish maqsadida Kingston Technology kompaniyasi tomonidan ushbu qo'llanma ishlab chiqilgan bo'lib, u sizga xarid qilgan yoki kelajakda xarid qilishni rejalashtirayotgan uskunangizning qalbaki emasligini tez fursatda aniqlab olish imkonini beradi.

Original xotira modullarini identifikatsiyalash uchun qadoqdagi yorliqdan himoya kodi va Kingston Technology kompaniyasining logotipi (bosh surati)ni topish lozim.

1. Yorliqdan rasmda ko'rsatilgan mikromuhr sohasini toping. Mikromuhrni ko'rish uchun uni biroz kattalashtirish lozim. Mikromuhr, xuddi ranggi o'chgan chiziq'larga o'xshab ko'rinadigan ammo biroz kattalashtirilganda so'zlarni o'qish imkonini beruvchi matnli tarkibiy tuzilishga ega.



2. Xarid qilingan xotira to'plamining qalbaki emasligiga seriya raqami va shtrix-kodni suratga olib Kingston Technology kompaniyasining MDX dagi xaridorlarni qo'llab quvvatlash xizmatining : [CIS\\_support@kingston.com](mailto:CIS_support@kingston.com) manziliga yuborish orqali ishonch xosil qilishingiz mumkin.
3. Kingston Technologyning original xotira maxsulotlarini qalbaki maxsulotlardan farqlash bo'yicha video-namoyishini quyidagi xavola orqali ko'rishingiz mumkin: